



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

BOJXONA TIZIMIDA INSON RESURLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY MEKANIZMLARNING AHAMIYATI

Rustamov Voxidjon Arashovich

Bojxona qo‘mitasi Inson resurslarini
rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi bosh inspektori
e-mail: vrustamov1988@umail.uz.

Annotatsiya:

Mazkur tezisda mamlakatimiz bojxona organlari tizimida inson resurslarini barqaror rivojlantirishda huquqiy mexanizmlarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Kadrlarni saralash, tanlash, lavozimlarga tayinlash, xizmat faoliyatini baholash, malakasini oshirish va ijtimoiy himoya qilish jarayonlarini huquqiy jihatdan tartibga solishning ahamiyati yoritilib, sohani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: bojxona xizmati, inson resurslari, huquqiy mexanizm, kadrlar siyosati, meritokratiya, xizmat faoliyatini baholash, malaka oshirish, kadrlar barqarorligi.

ЗНАЧЕНИЕ ПРАВОВЫХ МЕХАНИЗМОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ТАМОЖЕННОЙ СИСТЕМЕ

Рустамов Вохиджон Арашович

Главный инспектор Управления по развитию и управлению человеческими ресурсами Таможенного комитета
e-mail: vrustamov1988@umail.uz.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Аннотация:

в настоящих тезисах анализируются роль и значение правовых механизмов в обеспечении устойчивого развития человеческих ресурсов в системе таможенных органов Республики Узбекистан. Освещается важность правового регулирования процессов отбора и подбора кадров, назначения на должности, оценки служебной деятельности, повышения квалификации и социальной защиты сотрудников. Также предлагаются рекомендации по совершенствованию правовых и организационных механизмов развития кадрового потенциала таможенных органов.

Ключевые слова: таможенная служба, человеческие ресурсы, правовой механизм, кадровая политика, меритократия, оценка служебной деятельности, повышение квалификации, кадровая стабильность.

THE IMPORTANCE OF LEGAL MECHANISMS IN ENSURING THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HUMAN RESOURCES IN THE CUSTOMS SYSTEM

Rustamov Voxidjon Arashovich

Chief Inspector of the Human Resources Development and Management

Department of the Customs Committee

e-mail: vrustamov1988@umail.uz.

Abstract:

This thesis analyzes the role and significance of legal mechanisms in ensuring the sustainable development of human resources within the customs authorities of the Republic of Uzbekistan. It highlights the importance of legal regulation of personnel screening and selection, appointment to positions, performance



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

evaluation, professional development, and social protection of employees. Furthermore, the thesis puts forward recommendations aimed at improving the legal and organizational frameworks for the development of human resources in the customs system.

Keywords: customs service, human resources, legal mechanism, personnel policy, meritocracy, performance evaluation, professional development, workforce stability.

Kirish

Oxirgi yillarda O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda inson resurslarini boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishni ham talab etmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash, tashqi savdo operatsiyalarini nazorat qilish va davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutuvchi bojxona organlari faoliyatida malakali, professional va halol kadrlar korpusini shakllantirish strategik ahamiyat kasb etadi. Ta‘kidlash joizki, inson resurslarini barqaror rivojlantirish jarayoni samarali huquqiy mexanizmlarsiz amalga oshirilishi mumkin emas. Huquqiy mexanizmlar kadrlarni tanlash, xizmatga qabul qilish, kasbiy rivojlantirish, rag‘batlantirish hamda ijtimoiy himoya qilishning aniq mezon va tartiblarini belgilab beradi. Shu bois bojxona organlarida inson resurslarini rivojlantirishning institutsional asoslarini mustahkamlashda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda davlat xizmati ikkiga: davlat fuqarolik xizmati hamda davlatning maxsus xizmatiga ajratilgan.

Shundan kelib chiqib davlat fuqarolik xizmatchilarining faoliyati quyidagi:



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5843-son Farmoni;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-95-son Farmoni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasiga ko‘ra ushbu Qonun bir qator davlat xizmatchilari, jumladan prokuratura, ichki ishlar, mudofaa ishlari, favqulodda vaziyatlar, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Davlat bojxona xizmati, Davlat xavfsizlik xizmati va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati organlarida xizmatni o‘tayotgan davlat xizmatchilarining, shu jumladan harbiy xizmatchilarning faoliyatiga nisbatan tatbiq etilmasligi belgilangan.

Bu esa mazkur davlat organlarida inson resurslarini boshqarish, jumladan kadrlarni saralash, tanlash, lavozimlarga tayinlash, xizmat faoliyatini baholash, malakasini oshirish va ijtimoiy himoya qilish jarayonlarini huquqiy jihatdan tartibga solish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu maqsadda “Prokuratura to‘g‘risida”, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida” to‘g‘risidagi Qonunlar qabul qilingan.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

So‘ngi yillarda bojxona tizimida ham inson resurslarini barqaror rivojlantirish maqsadida normativ-huquqiy baza takomillashtirildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 18-oktabrdagi O‘RQ-502-son Qonuni bilan “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

Mazkur Qonunga asosan bojxona organlarining asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, bojxona organlarida xizmatni o‘tash, bojxona organlari xodimlarini huquqiy va ijtimoiy himoya qilish masalalarining huquqiy asoslari yaratildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarining shaxsiy tarkibi hamda ularning oila a‘zolarini ijtimoiy himoya qilish tizimini tartibga solish to‘g‘risida” 700-son qarori bilan bojxona organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishning yagona tizimi joriy etildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi PQ-122-son qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarining Intizom nizomi yangidan tasdiqlandi.

Yangidan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizom bojxona organlaridagi xizmatga qabul qilish, xodimlarning huquq va majburiyatlari, ularga maxsus unvonlarni berish, pasaytirish va ulardan mahrum qilish, lavozimga tayinlash, lavozimdan ozod etish va rotatsiya, xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, attestatsiyadan o‘tkazish, ta‘tillar berish, xizmat muddatini uzaytirish, xizmatdan bo‘shatish va xizmatga tiklash, xizmatni o‘tash rejimini ta‘minlash,



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

huquqiy

va ijtimoiy himoya qilish, bir davlat organidan boshqa davlat organiga o‘tkazish, boshqa davlat organlari va tashkilotlariga tayinlanganida (yuborilganida) xizmatni o‘tashi masalalarini huquqiy jihatdan tartibga soladi.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar asosida bojxona tizimida inson resurslarini boshqarishga oid amaliyotda mavjud bo‘lgan bir qator muammolar hal etilib, huquqiy bo‘shliqlar to‘ldirildi.

Ta’kidlash joizki, mazkur normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish jarayonlarida muallifning tashabbus va takliflari inobatga olinib, bir qator ilmiy yangiliklar amaliyotga joriy etilgan.

Xususan yangi tahrirdagi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi PQ-122-son qaroriga asosan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarida xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizomning 2-bandida “Bojxona organlarida xizmat qilayotgan, maxsus unvon berilgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bojxona organining xodimidir” mazmunidagi mualliflik ta’rifi berilgan.

Mazkur ilmiy yangilikning joriy etilishi bojxona organlari tizimiga oid qonunchilik va idoraviy hujjatlar normalarini ishlab chiqishda “bojxona organlari xodimi” tushunchasining to‘g‘ri qo‘llanilishi bojxona tizimida boshqaruvning amaliy va qonuniy jihatlarini aniqlash hamda boshqaruv bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bojxona organlarida inson resurslarini boshqarishning samaradorligi, avvalo, mavjud huquqiy asoslarning mukammalligi bilan belgilanadi. Huquqiy mexanizmlar orqali kadrlar siyosatining asosiy tamoyillari, jumladan, qonuniylik, shaffoflik, ochiqlik, teng imkoniyatlar va meritokratiya prinsiplari mustahkamlanadi.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Meritokratiya tamoyili asosida kadrlarni tanlash va lavozimga tayinlash tizimi professional salohiyatga ega xodimlarni aniqlash hamda xizmat faoliyatida adolatli raqobat muhitini yaratishga xizmat qiladi. Natijada xodimlarning xizmatga bo‘lgan motivatsiyasi ortadi va kadrlar qo‘nimsizligi darajasi kamayadi.

Shuningdek, huquqiy mexanizmlar xodimlarning mehnat huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish orqali xizmat faoliyatining barqarorligini ta’minlaydi. Xususan, xizmat vaqti, dam olish, ijtimoiy kafolatlar, xizmat intizomi va rag‘batlantirish bilan bog‘liq munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi xodimlarning kasbiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, xizmat faoliyatida korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarning takomillashtirilishi xodimlarning kasbiy etikasi va mas’uliyatini oshirishga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, yaqin kelajakda bojxona organlarida inson resurslarini barqaror rivojlantirishga qaratilgan quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- kadrlarni tanlash va lavozimga tayinlashning meritokratik mexanizmlarini yanada takomillashtirish;
- xizmat faoliyatini baholashning kompetensiyaga asoslangan tizimini huquqiy jihatdan mustahkamlash;
- uzluksiz kasbiy rivojlanish va malaka oshirishning majburiy standartlarini joriy etish;
- xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani kengaytirish;
- raqamli HR texnologiyalari va ularning huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- korrupsiyaga qarshi komplayens mexanizmlarini kadrlar boshqaruvi tizimiga integratsiya qilish.



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Xulosa qilib aytganda, bojxona organlarida inson resurslarini barqaror rivojlantirish samarali huquqiy mexanizmlarni shakllantirish va doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etadi. Kuchli normativ-huquqiy baza kadrlar salohiyatini rivojlantirish, xizmat faoliyati samaradorligini oshirish, kadrlar qo‘nimsizligini kamaytirish hamda zamonaviy va professional bojxona xizmatini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Shu sababli, inson resurslarini boshqarish sohasidagi huquqiy islohotlar bojxona organlari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”, “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”, “Prokuratura to‘g‘risida”, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida” to‘g‘risidagi Qonunlari;
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-122-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarining shaxsiy tarkibi hamda ularning oila a‘zolarini ijtimoiy himoya qilish tizimini tartibga solish to‘g‘risida” 700-son qarori.
5. www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi).



Global Conference on Multidisciplinary Research and Innovation

Hosted Online from Berlin, Germany

Date: 2nd June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

6. Bojxona qo‘mitasining kadrlar siyosatiga oid ichki idoraviy hujjatlari.

7. Bojxona organlarida inson resurslarini boshqarishga oid ilmiy maqolalar va tadqiqotlar.